BOQUVCHISINI YO‘QOTGANLIK PENSIYASINI HISOBLASH TARTIBI VA MAS’UL DAVLAT ORGANLARI VAKOLATLARI TAHLILI

Qodirova E’zoza Baxodirovna
Toshkent davlat yuridik universiteti magistri
e-mail: kadirovaezoza0104@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasini hisoblash tartibi hamda ushbu pensiyani tayinlash va to‘lash bo‘yicha mas’ul davlat organlarining vakolatlari kompleks huquqiy tahlil qilinadi. Pensiya miqdorini shakllantiruvchi uchta tarkibiy qism - tayanch miqdor, ortiqcha ish staji uchun oshirish hamda ustama haqlar “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi Qonunning 26-34-moddalari va Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 13-oktabrdagi 592-son qarori bilan tasdiqlangan Nizom normalari asosida amaliy misollar bilan ochib beriladi.*

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, milliy qonunchilikda pensiya miqdorini aniqlashda differensial yondashuv bilan minimal ijtimoiy kafolatlar uyg‘unlashtirilgan, biroq indeksatsiya koeffitsientlarining real inflyatsiya sur’atlaridan orqada qolishi hamda vakolatlarning bir necha idora o‘rtasida taqsimlanishi amaliyotda muayyan murakkabliklarni keltirib chiqarmoqda. Maqolada mazkur holatlarni bartaraf etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi, tayanch miqdor, o‘rtacha oylik ish haqi, mehnat staji, indeksatsiya, Pensiya jamg‘armasi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, chin yetim bolalar.*

KIRISH

Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasini hisoblash va tayinlash bilan bog‘liq munosabatlar maxsus normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Xalqaro Mehnat Tashkilotining 102-sonli Konvensiyasi ushbu pensiya turi bo‘yicha

minimal standartlarni belgilab bergan bo‘lib, uning 63-moddasiga ko‘ra pensiya tayinlashda bevaning va voyaga yetmagan bolalarning oilaviy ahvoli, sog‘lig‘i va yoshi hisobga olinadi. Beva uchun pensiya marhum erning ish haqining 40 foizidan 100 foizigacha, bolalar uchun esa har bir bolaga 10–30 foiz miqdorida belgilanishi ko‘zda tutilgan [1].

O‘zbekiston mazkur Konvensiyani ratifikatsiya qilmagan bo‘lsa-da, unda belgilangan talablar milliy qonunchilikda o‘z aksini topgan. Xususan, ish stajiga qo‘yilgan talablar Konvensiyaga nisbatan fuqarolar uchun qulayroq sharoitlarni nazarda tutadi, yoshga doir pensiya uchun eng kamida 7 yillik staj talab qilinsa, boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi uchun istalgan muddatdagi stajning mavjudligi fakti yetarli hisoblanadi. Mazkur maqolada pensiyani hisoblash metodologiyasi va vakolatli organlar tizimi tahlil qilinadi.

ASOSIY QISM

1. Pensiya miqdorini shakllantiruvchi tarkibiy qismlar

Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasini hisoblash tartibi “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi Qonunning 27-34-moddalari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 13-oktabrdagi 592-son qaroriga ilova qilingan “Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi Nizom” bilan tartibga solinadi [2]. Pensiya miqdori uch asosiy tarkibiy qismdan iborat bo‘ladi.

Birinchi tarkibiy qism - pensiyaning tayanch miqdori. Qonunning 26-moddasi birinchi qismi “g” bandiga binoan u oilaning mehnatga layoqatsiz har bir a’zosiga pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o‘rtacha oylik ish haqining 30 foizi, lekin yoshga doir eng kam pensiyaning kamida 50 foizi miqdorida belgilanadi. Bugungi kunda yoshga doir eng kam pensiya miqdori PF-91-sonli Farmonga asosan 918 000 so‘mni tashkil etadi, ya’ni boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasining minimal miqdori 459 000 so‘mdan kam bo‘lmasligi lozim. Mazkur qoida bir tomondan pensiya miqdorini boquvchining oldingi daromadiga bog‘lash orqali differensial yondashuvni ta’minlasa, ikkinchi tomondan minimal ijtimoiy

kafolatni belgilash orqali past daromadli oilalar manfaatlarini himoya qiladi.

Ota-onasidan judo bo‘lgan (chin yetim) bolalarga hamda vafot etgan yolg‘iz onaning bolalariga nisbatan kuchaytirilgan kafolat nazarda tutilgan: Qonunning 26-moddasi birinchi qismi “d” bandiga ko‘ra pensiya har bir bola uchun o‘rtacha oylik ish haqining 30 foizi, lekin yoshga doir eng kam pensiyaning kamida 100 foizi miqdorida belgilanadi. Amaliy misol tariqasida, vafot etgan boquvchining o‘rtacha oylik ish haqi 4 800 000 so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, chin yetim farzandi uchun uning 30 foizi, ya’ni 1 440 000 so‘m tayinlanadi; hisoblangan miqdor 918 000 so‘mdan kam chiqadigan bo‘lsa, pensiya 918 000 so‘m hisobida olinadi. Bolalar uyida tarbiyalanayotgan bolalar uchun ushbu mablag‘ bank hisobvarag‘ida jamlanib borishi mustaqil hayotga qadam qo‘yish davrida muhim moddiy poydevor vazifasini bajaradi.

Ikkinchi tarkibiy qism - ish staji uchun oshirish. Qonunning 27-moddasiga muvofiq, pensiya tayinlashda talab etiladiganidan ortiqcha ish stajining har bir to‘liq yili uchun boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi oilaning mehnatga qobiliyatsiz har bir a’zosi uchun o‘rtacha oylik ish haqining 0,5 foizi miqdorida oshiriladi. Masalan, erkaklar uchun talab qilinadigan umumiy staj 25 yil bo‘lib, vafot etgan boquvchi 30 yillik stajga ega bo‘lsa, har bir mehnatga qobiliyatsiz oila a’zosi uchun pensiya 30 foiz emas, balki 32,5 foiz miqdorida tayinlanadi. Chin yetim bolalarga nisbatan esa oshirish ota va ona ish haqlarining umumiy miqdoridan kelib chiqib, pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining o‘n ikki barobari doirasida amalga oshiriladi. Bazaviy miqdor 471 000 so‘m bo‘lgani holda uning 12 baravari 5 652 000 so‘mni tashkil etadi, ya’ni ota-onaning birgalikdagi o‘rtacha oylik ish haqi 8 000 000 so‘m bo‘lgan taqdirda ham pensiya 5 652 000 so‘m miqdorida cheklanadi. Bu holat ijtimoiy himoyaga muhtoj toifa uchun sezilarli cheklov hisoblanadi.

Uchinchi tarkibiy qism - pensiyaga ustama haqlar. Qonunning 28-moddasiga ko‘ra, vafoti harbiy xizmat yoki ichki ishlar organlaridagi, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasidagi xizmat majburiyatlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan harbiy xizmatchilar hamda xodimlarning ota-onalariga va yangi nikohdan

o‘tmagan beva xotinlariga (beva erlariga) pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining 30 foizi miqdorida ustama belgilanadi. Ushbu normada subyektlar doirasi qat’iy cheklangan bo‘lib, faqat moddada ko‘rsatilgan shaxslargina ustamadan bahramand bo‘lishi mumkin.

2. O‘rtacha oylik ish haqini aniqlash va indeksatsiya masalasi

Pensiyani hisoblash bilan bevosita bog‘liq masalalardan biri o‘rtacha oylik ish haqini aniqlash metodologiyasidir. Qonunning 31-moddasiga ko‘ra, pensiyani hisoblash uchun boquvchining so‘nggi 10 yilligidan ketma-ket 5 yillik ish haqi asosga olinadi. Ushbu imkoniyat amalda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki shaxs mehnat faoliyatining turli davrlarida har xil daromad olgan bo‘lishi mumkin. Rossiya huquqshunosi T.K. Mironovaning ta’kidlashicha, o‘rtacha ish haqini hisoblashda eng qulay davr tanlovini qonunda mustahkamlash fuqarolar manfaatini pensiya munosabatlarida himoya qilishning samarali mexanizmi hisoblanadi [3]. Shunga o‘xshash yondashuv Qozog‘iston Respublikasining 2013-yil 21-iyundagi “Pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi Qonunida ham mustahkamlangan [4].

O‘limning sabablariga ko‘ra pensiya tayinlash asoslari ham farqlanadi. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa, ishda olingan jarohat yoki kasb kasalligi oqibatida hamda ularga tenglashtirilgan holatlarda vafot etgan shaxslarning oila a’zolariga pensiya ish staji davomiyligidan qat’i nazar to‘liq miqdorda tayinlanadi. Umumiy kasallikdan vafot etgan shaxslarning oila a’zolariga esa pensiya boquvchining ish stajiga mutanosib ravishda, Qonunning 17-moddasida ko‘rsatilgan talablar asosida yoki 22-moddaga muvofiq to‘liqsiz ish staji bilan tayinlanadi.

Tanlangan besh yillik davr uchun hisoblangan ish haqi Nizomga asosan koeffitsientlar yordamida hozirgi kun bilan tenglashtiriladi. Mazkur mexanizm pensiya miqdorining inflyatsiya ta’siriga nisbatan muvozanatini ta’minlashga xizmat qiladi, biroq amaliyotda indeksatsiya koeffitsientlarining real inflyatsiya sur’atlaridan orqada qolish holatlari kuzatilmoqda. Bu esa pensiyaning real xarid qobiliyatini pasaytiruvchi omil sifatida baholanadi.

3. Mas’ul davlat organlari va ularning vakolatlari

Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasini tayinlash va to‘lash bo‘yicha vakolatlar bir necha idora o‘rtasida taqsimlangan. Asosiy vakolat egalari sifatida Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi hamda Ijtimoiy himoya milliy agentligining hududiy bo‘linmalari ajralib turadi.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi pensiya to‘lovlarini moliyalashtirish va ijro etishning asosiy institutsional mexanizmi hisoblanadi. U murojaat va hujjatlarni qabul qilish hamda tekshirish, ariza beruvchining pensiya olish huquqini (mehnatga layoqatsizligi, qaramog‘ida bo‘lganligi, oila a’zolari soni) aniqlash, marhumning ish staji va to‘langan sug‘urta badallari asosida pensiya miqdorini hisoblash va tayinlash, pensiyani qayta hisoblash, o‘zgartirish yoki to‘xtatish to‘g‘risida qaror qabul qilish vakolatlariga ega. R. Holzmann va R. Hinzning tadqiqotida ta’kidlanishicha, pensiya jamg‘armasining byudjetdan mustaqil faoliyat yuritishi pensiya tizimi barqarorligini ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi [5].

Ijtimoiy himoya milliy agentligining hududiy bo‘linmalari oilalarni ijtimoiy reyestrga kiritish va ijtimoiy holatini baholash, kam ta’minlangan hamda boquvchisini yo‘qotgan oilalarga qo‘shimcha moddiy yordam va ijtimoiy xizmatlar tashkil etish, “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari orqali murojaatlarni qabul qilish va hujjatlarni rasmiylashtirishda ko‘mak berish, pensiyalarni “Baraka” ijtimoiy kartasi orqali to‘lash monitoringida ishtirok etish kabi vazifalarni bajaradi.

Harbiy xizmatchilar, sudyalar va prokuratura xodimlarining oila a’zolariga pensiya tayinlash esa umumiy tartibdan farq qiladi. Harbiylashtirilgan organlarning maxsus pensiya bo‘linmalari xizmat staji va pul ta’minoti miqdorini aniqlaydi hamda pensiyani tayinlaydi: xizmat vazifalarini bajarish paytida halok bo‘lgan harbiy xizmatchining har bir oila a’zosiga pul ta’minotining 40 foizi, xizmat vazifalari bilan bog‘liq bo‘lmagan baxtsiz hodisa sababli vafot etganda esa 30 foizi miqdorida pensiya belgilanadi. Sudyalar bo‘yicha vakolat Oliy sud huzuridagi Sudlar faoliyatini ta’minlash departamenti hamda Konstitutsiyaviy sud

zimmasiga yuklatilgan [6].

XULOSA

Tahlil natijalariga ko‘ra, boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasini hisoblash tartibi O‘zbekiston qonunchiligida aniq mezonlar asosida shakllantirilgan bo‘lib, unda boquvchining ish staji, o‘rtacha oylik ish haqi, oila a’zolarining mehnatga layoqatsizlik holati hamda alohida ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalarning manfaatlari kompleks tarzda hisobga olinadi. Differensial yondashuv bir tomondan mehnat faoliyatining davomiyligi va sug‘urta badallarini inobatga olsa, ikkinchi tomondan minimal ijtimoiy kafolatlar orqali ijtimoiy adolat tamoyilini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, mazkur pensiya turini tayinlash birgina organ vakolatiga kirmaydi: Pensiya jamg‘armasi, ijtimoiy himoya organlari hamda harbiylashtirilgan va idoraviy pensiya bo‘linmalari o‘zaro hamkorlikda faoliyat yuritadi. Vakolatlarning ko‘p organlar o‘rtasida taqsimlangani hujjatlarni yig‘ish va ma’lumotlarni tasdiqlash jarayonida fuqarolar uchun ortiqcha vaqt va byurokratik yuklama yuzaga keltirmoqda. Shu sababli pensiya tayinlash jarayonlarini soddalashtirish, davlat organlari o‘rtasidagi elektron integratsiyani kuchaytirish, barcha xizmatlarni yagona tizim asosida muvofiqlashtirish hamda indeksatsiya koeffitsientlarini real inflyatsiya sur’atlariga muvofiqlashtirish ushbu sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ijtimoiy ta’minotning minimal standartlari to‘g‘risidagi Xalqaro Mehnat Tashkilotining 102-sonli Konvensiyasi, 1952.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 13-oktabrdagi 592-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi Nizom”.

3. Миронова Т.К. Право социального обеспечения. – М.: Кнорус, 2020.

4. Qozog‘iston Respublikasining 2013-yil 21-iyundagi “Pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi Qonuni.

5. Holzmann R., Hinz R. Old-Age Income Support in the 21st Century: An International Perspective on Pension Systems and Reform. – Washington: World Bank, 2005. – 246 p.

6. “Sudyalar va ularning oila a’zolari pensiya ta’minoti shartlari, me’yorlari hamda tartibi to‘g‘risida”gi Nizom.